

Namangan viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2025/2026 o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

So'nggi yillarda Namangan viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy soni ortib bormoqda. 2025/2026 o'quv yili boshida 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **9 taga**, ya'ni **7,4 % ga** kamayib, **59 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni 2025/2026 o'quv yili boshida **6 tani** tashkil etgan va 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan **2 taga**, ya'ni **33,3 % ga** oshgani kuzatilgan. Shuningdek, texnikumlar sonida ham o'sish qayd etilgan. Mazkur davr davomida ularning soni 2025/2026 o'quv yili boshida **53 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Namangan viloyati	6	53
Namangan sh	3	6
Davlatobod t	1	
Yangi Namangan t	1	1
tumanlar		2
Mingbuloq	-	4
Kosonsoy	-	6
Namangan	-	4
Norin	-	4
Pop	-	4
To'raqo'rg'on	-	4
Uychi	-	4
Uchqo'rg'on	-	3
Chortoq	1	3
Chust	-	4
Yangiqo'rg'on	-	4

Eng ko'p akademik litseylar Namangan shahri (**3 ta**) va Davlatobod (**1 ta**) tumanlarida kuzatilgan. Texnikumlar soni bo'yicha Namangan shaxri (**6 ta**) Kosonsoy tumani (**6 ta**) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganlar.

Boshqa hududlarga nisbatan, eng kam akademik litseylar Chortoq tumanida (**1 ta**) kuzatilgan. Eng kam Texnikumlar soni bo'yicha ham Davlatobod (**1 ta**), Yangi Namangan (**2 ta**) va Chortoq (**3 ta**) tumanlari eng past ko'rsatkichga ega bo'lganlar.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)


[Kollejlar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy o'sish kuzatilmoqda. 2025/2026 o'quv yili boshida 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan Texnikumlarga qabul qilinganlar soni **9,1 ming nafardan 23,2 ming nafargacha**, ya'ni **254 % ga** oshgan.


Qabul qilingan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)

Akademik litseylar



O'quv yillari

Texnikumlar



O'quv yillari

Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi ham o'sganini ko'rish mumkin — **1,0 ming nafardan 1,1 ming nafargacha**, ya'ni **9,1 % ga** oshgan.

Qabul qilingan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Namangan viloyati	1,1	23,22
Namangan sh	0,6	4,2
Davlatobod t	0,2	0,02
Yangi Namangan t	0,2	0,5
<i>tumanlar</i>		
Mingbuloq	-	0,9
Kosonsoy	-	3,0
Namangan	-	1,3
Norin	-	2,2
Pop	-	1,9
To'raqo'rg'on	-	2,0
Uychi	-	1,5
Uchqo'rg'on	-	1,3
Chortoq	0,1	1,1
Chust	-	2,0
Yangiqo'rg'on	-	1,3

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahri (**0,6 ming nafar**), texnikumlar bo'yicha – Namangan shahri (**4,2 ming nafar**)da eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylar bo'yicha Chortok tumani (**0,1 ming nafar**), texnikumlar bo'yicha – Davlatobod tumani (**0.02 ming**) da eng past ko'rsatkichlar belgilangan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni (jami)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

So'nggi yillarda Namangan viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni ortib bormoqda. 2025/2026 o'quv yili boshida 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **33,0 ming nafarga** ko'payib, **41,3 ming nafarni** tashkil etgan.


Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)

Akademik litseylar



O'quv yillari

Texnikumlar



O'quv yillari

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2025/2026 o'quv yili boshida ularning soni **2,8 ming nafarni** tashkil etgan va 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan **33,3% ga** ko'paygan. Shuningdek, texnikumlarda esa **30,2 ming nafarga** ko'paygan. Tegishliligi bo'yicha ularning umumiy soni **2,8 ming** va **38,5 ming nafarni** tashkil etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida (**1,6 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Namangan shahrida (**7,0 ming**) qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylardagi o'quvchilar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Chortoq viloyatida (**0,2 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Davlatobod tumanida (**0.04 ming**) kuzatilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Namangan viloyati	2,8	38,5
Namangan sh	1,6	7,0
Davlatobod t	0,5	0,04
Yangi Namangan t	0,5	1,2
<i>tumanlar</i>		
Mingbuloq	-	1,7
Kosonsoy	-	5,3
Namangan	-	2,0
Norin	-	3,6
Pop	-	3,5
To'raqo'rg'on	-	3,0
Uychi	-	2,5
Uchqo'rg'on	-	1,8
Chortoq	0,2	1,9
Chust	-	3,2
Yangiqo'rg'on	-	1,8

(2025/2026 o'quv yili boshiga, ming kishi)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2025 yilda, 2022 yilga nisbatan, ularning umumiy soni **5,4 barobarga** oshib, **9,2 ming nafarni** tashkil etgan.

Mazkur davr mobaynida texnikumlarniki **7,5 ming nafarga** oshgani qayd etilgan. Akademik litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni **1,1 ming nafarga**, ya'ni o'zgarmagan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



Bitiruvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024 yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Namangan viloyati	1,1	9,2
Namangan sh	0,6	1,1
Davlatobod t	0,2	0,006
Yangi Namangan t	0,2	0,07
<i>tumanlar</i>		
Mingbuloq	-	0,5
Kosonsoy	-	1,2
Namangan	-	0,7
Norin	-	0,9
Pop	-	0,9
To'raqo'rg'on	-	0,8
Uychi	-	0,73
Uchqo'rg'on	-	0,5
Chortoq	0,1	0,6
Chust	-	0,7
Yangiqo'rg'on	-	0,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)
[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)
[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)
[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)
[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)
[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026 o'quv yili boshida Namangan viloyatidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **2424 nafarni** tashkil etgan va 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan **400 nafarga**, ya'ni **21,2 % ga** ko'paygan.


Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)

Akademik litseylar



O'quv yillari

Texnikumlar



O'quv yillari

2025/2026 o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **263 nafarni** tashkil etgan va 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan **31,0 % ga** oshgan. Shuningdek, Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **1717 nafarga (386,7 % ga)** ko'payib, **2161 nafarni** tashkil etgan.

Enga ko'p pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni akademik litseylar bo'yicha Namangan shahri (**151 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa — Kosonsoy tumani (**281 nafar**) da kuzatilgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Texnikumlar
Namangan viloyati	263	2161
Namangan sh	151	248
Davlatobod t	39	1
Yangi Namangan t	43	92
<i>tumanlar</i>		
Mingbuloq	-	125
Kosonsoy	-	281
Namangan	-	140
Norin	-	180
Pop	-	254
To'raqo'rg'on	-	139
Uychi	-	131
Uchqo'rg'on	-	127
Chortoq	30	145
Chust	-	176
Yangiqo'rg'on	-	122

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(ayollar\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(erkaklar\)](#)

**O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va
metama'lumotlar**

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Namangan viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli “Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti” ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar viloyat va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)
[MSKO 2011](#)
[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ahaoli turmush darajasi va
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100170, Namangan sh.,
N.Namononiy ko'chasi, 14
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: 69-211-72-00